

“UY”, “YO‘L”, “TAQDIR” KONSEPTLARI: O‘ZBEK VA RUS PAREMIOLOGIYASIDA LINGVOKULTUROLOGIK QIYOS

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.003>

Muazzamxon Abdurasulova
abdurasulovamuazzam0@gmail.com
Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya: Maqolada “uy”, “yo‘l” va “taqdir” konseptlarining o‘zbek hamda rus paremiologiyasida ifodalanishi lingvokulturologik tahlil nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi - maqol formulalarida mustahkamlangan semantik yadro, qadriyaviy dominantalar va madaniy kodlarni aniqlash, shuningdek, o‘xshashlik va farqlanish nuqtalarini belgilashdir. Material V.I.Dal to‘plamidan hamda “O‘zbek xalq maqollari” korpusidan mavzuga ko‘ra tanlab olingan paremiya birliklaridan iborat. Konseptual va freym modellashtirish, metaforik proyeksiyalar tahlili hamda qo‘llanishning pragmatik sharoitlarini aniqlash usullari qo‘llandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, “uy” har ikkala an‘anada “o‘z” va himoyalangan makonni kodlaydi, “yo‘l” tajriba va sinov metaforasi sifatida namoyon bo‘ladi, “taqdir” esa rus materialida ko‘proq muqarrarlik tarzida anglashilsa, o‘zbek materialida “tadbir-taqdir” korrelyatsiyasi orqali shaxsiy sa’y-harakat uchun ma’lum imkoniyatni ham nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: konsept, paremiologiya, lingvokulturologiya, maqol, uy, yo‘l, taqdir, qadriyatlar

CONCEPTS OF “HOME”, “ROAD”, “FATE”: LINGUOCULTUROLOGICAL COMPARISON IN UZBEKISTAN AND RUSSIAN PAREMIOLOGY

Muazzamkhon Abdurasulova
abdurasulovamuazzam0@gmail.com
Andijan Branch of Kokand University

Abstract: The article examines how the concepts “home,” “road,” and “fate” are represented in Uzbek and Russian paremiology from a linguocultural perspective. The aim is to identify the semantic core, value dominants, and cultural codes embedded in proverbial formulations and to determine points of similarity and divergence. The material consists of thematically selected paremias from V.I.Dal’s collection and from the “O‘zbek xalq maqollari” corpus. The study employs conceptual and frame

modeling, analysis of metaphorical projections, and examination of pragmatic conditions of use. The findings show that “home” in both traditions encodes a protected “one’s own” world; “road” functions as a metaphor of experience and trial; while “fate” in the Russian data is more often conceptualized as inevitability, whereas in the Uzbek data it is interpreted through the “tadbir-taqdir” correlation, which leaves room for personal agency and effort.

Keywords: concept, paremiology, linguocultural studies, proverb, home, road, fate, values

Kirish

Zamonaviy lingvistika tilni “tayyor belgilar” tizimi sifatida emas, balki milliy tafakkur va madaniyatni talqin qiluvchi mexanizm sifatida ko‘radi: dunyo xalq ongida til prizmasi orqali “ko‘rinadi” va qayta kodlanadi (Маслова В.А., 2015, с. 31). Shu nuqtayi nazardan paremiologik fond - xalqning kundalik tajribasi, axloqiy me‘yorlari va qadriyatlar hierarxiyasini ixcham shaklda saqlaydigan “madaniy xotira” qatlamidir (Бредис М.А., Ломакина О.В., 2020, с. 2). Maqol va matallar tarkibida konseptlar nafaqat nomlanadi, balki baholanadi, qiyoslanadi va tipik hayotiy vaziyatlarga “tayyor izoh” sifatida ulanadi. Mazkur maqola uch asosiy konsept - “uy”, “yo‘l”, “taqdir” - atrofida qurilgan. Tanlov tasodifiy emas: “uy” makon va identifikatsiya, “yo‘l” harakat va tajriba, “taqdir” esa sabab-oqibat va inson irodasi chegaralarini muhokama qiladigan yadro kategoriyalardir. Lingvokulturologiyada konsept “kollektiv bilimning, til orqali ifodalangan va etnomadaniy xususiyat bilan belgilangan” birligi sifatida talqin qilinadi (Воркачѳв С.Г., 2014, с. 63). Demak, paremiologik material bu konseptlarning xalqona “modeli”ni tiklash uchun qulay manba hisoblanadi.

Metodologiya

Tadqiqot sifat (qualitative) formatda amalga oshirildi. Material bazasi ikki manbadan olindi: rus tilida V.I. Dal’ning “Пословицы русского народа” to‘plami (I jild) hamda o‘zbek tilida “O‘zbek xalq maqollari” (Mirzayev T. va boshq., 2005). Tahlilning birinchi bosqichi semantik guruhlash va ramka (frame) elementlarini ajratish bilan kifoyalandi, ikkinchisi, metaforik proeksiyalarni aniqlash bilan masalan, “hayot - yo‘l” kabilar va uchinchi bosqichda aksiologik komponentni belgilashlik vazifasi qo‘yildi, yani qaysi holat ma‘qullanadi, qaysisi tanqid qilinadi. Qiyosiy tahlilda uch parametr asosiy mezon bo‘ldi: nominativ qatlam (kalit leksemalar va ularning sinonimik yaqinlashuvi), obrazli komponent (metafora, metonimiya, personifikatsiya) hamda baholash (maslahat/ogohlantirish, ma‘qullash/ta’na). Har bir paremiya tipik kommunikativ vaziyat bilan bog‘lab talqin qilindi, masalan, u ko‘proq tasalli beradimi, yo‘l ko‘rsatadimi yoki ijtimoiy me‘yorni mustahkamlaydimi. Tarjima ekvivalentlari “so‘zma-so‘z” emas, balki ma’no va pragmatik vazifa bo‘yicha moslashtirildi.

Natijalar

“Uy” konsepti. O‘zbek paremiologiyasida “uy” ko‘pincha “ko‘ngil-makon” o‘qida talqin qilinadi: “Ko‘rgon qayerda bo‘lsa, ko‘ngling shu yerda” degan birlikda uy insonning hissiy markazi bilan bog‘lanadi (Mirzayev T. va boshq., 2005, 4-b.). Boshqa bir maqolda uy fazosi insonning dunyoni idrok etish ko‘lamini belgilaydi: “Uying tor bo‘lsa, dunyoning kengligi bilinmas” (Mirzayev T. va boshq., 2005, 127-b.). “Uy” ramkasi ko‘pincha avlodlar davomiyligi bilan ham mustahkamlanadi: “Qari bor uyning zari bor” maqoli uy barakasi va obro‘si katta avlod bilan bog‘lanishini ko‘rsatadi (Mirzayev T. va boshq., 2005, 242-b.). Rus materialida esa “o‘z makon” g‘oyasi individual mustaqillik bilan birikadi: “Свой умок - свой домок, свой уголок” (Даль В.И., 1989, с. 384). Umumiy nuqta - uy “o‘z” va “begona” oppozitsiyasida ijobiy qutb; farq - o‘zbek maqollarida uy ko‘proq oilaviy-ijtimoiy qiymatlarni, rus paremiologiyasida esa shaxsiy “burchak” konsepsiyasini kuchliroq urg‘ulaydi.

“Yo‘l” konsepti. Ikkala madaniyatda ham “yo‘l” tajriba va sinov manbai sifatida semantik markazga ega. Rus paremiologiyasida “yo‘l”ning “tarbiyalovchi” funksiyasi ochiq ifodalanadi: “Печка прочит, а дорожка учит” (Даль В.И., 1989, с. 242). Yo‘lning ijtimoiy o‘lchovi ham bor: “Умный товарищ - половина дороги” yoki “Одному ехать - и дорога долга” (Даль В.И., 1989, с. 242). O‘zbek maqollarida esa “yo‘l” konsepti ko‘proq faoliyat va tashabbus bilan bog‘lanadi: “Yo‘lni yo‘lchi yengar” hamda “Yurgan oyoq yo‘l topar” (Mirzayev T. va boshq., 2005, 243-b.). “Olis yo‘l otni sinar, og‘ir yo‘l mardni sinar” maqoli yo‘lni mardlik mezonini sifatida konseptuallashtiradi (Mirzayev T. va boshq., 2005, 243-b.).

“Taqdir” konsepti. Rus maqollarida “судьба” ko‘pincha tashqi kuch sifatida shaxs irodasini cheklaydi: “От судьбы не уйдешь” va “Судьба придет - по рукам свяжет” (Даль В.И., 1989, с. 45). O‘zbek paremiologiyasida “taqdir” ham muqarrarlikni bildiradi, biroq u “tadbir” (reja, choralar) bilan munosabatda ko‘proq muvozanatli ko‘rinadi: “Tadbirda taqdir hayron” (Mirzayev T. va boshq., 2005, 206-b.). “Taqdirning ishini tadbir buzolmas, tadbirning ishini taqdir buzolmas” birligi ikki omilning parallel ishlashini ifodalaydi (Mirzayev T. va boshq., 2005, 206-b.).

Jadval 1.

Konseptlarning paremiologik profili (qisqa umumlashtirish)

Konsept	O‘zbek paremiologiyasida dominant ramka	Rus paremiologiyasida dominant ramka	Aksiologik urg‘u
Uy	“ko‘ngil-makon”, oila, baraka	“o‘z burchak”, mustaqillik	“o‘z” makon, ijobiy
Yo‘l	harakat, imkon, mardlik sinovi	tajriba “maktabi”, hamrohning roli	tajriba ijobiy, yolg‘izlik, salbiy

Taqdir	“tadbir-taqdir” muvozanati	muqarrarlik, cheklov	qabul qilish, moslashish
--------	----------------------------	-------------------------	-----------------------------

Muhokama. Natijalar konseptlarning “universal” va “madaniy xos” komponentlarini ajratishga imkon beradi. Universal qism, avvalo, makon va hayotiy tajriba metaforalarida namoyon bo‘ladi: uy - xavfsiz joy, yo‘l - hayot yo‘li, taqdir - insondan tashqaridagi tartib. Madaniy xoslik esa aksiologik urg‘ularda ko‘rinadi. O‘zbek materialida uy konsepti ko‘proq oila ichidagi ijtimoiy rishtalar va “baraka” qadriyatiga ulanadi (Mirzayev T. va boshq., 2005, 242-b.). Rus maqollarida uy bilan bog‘liq “burchak” metaforasi shaxsiy hudud va mustaqillikni kuchaytiradi (Даль В.И., 1989, с. 384). Yo‘l konseptida ham o‘xshash farq kuzatiladi: rus paremiologiyasi yo‘lni ijtimoiy hamkorlik va “o‘rganish” maydoni sifatida ko‘rsa, o‘zbek maqollarida yo‘l insonning harakati bilan “ochiladigan” imkoniyat sifatida talqin qilinadi (Даль В.И., 1989, с. 242; Mirzayev T. va boshq., 2005, 243-b.).

Taqdir konseptidagi tafovut, ehtimol, pragmatik ehtiyoj bilan ham bog‘liq, paremiologiya hayotiy noaniqliklarni izohlashga xizmat qiladi. Rus maqollarida bunday izoh ko‘proq “qabul qilish” strategiyasini beradi, o‘zbek materialida esa “tadbir”ni eslatish orqali mas’uliyat va harakatni ham tasdiqlaydi (Даль В.И., 1989, с. 45; Mirzayev T. va boshq., 2005, 206-b.).

Xulosa. O‘zbek va rus paremiologiyasi misolida “uy”, “yo‘l”, “taqdir” konseptlari xalqona dunyoqarashning uch tayanch nuqtasini ifodalaydi: makoniy “o‘zlik”, harakat va tajriba, hamda inson irodasidan tashqaridagi tartib. Qiyosiy tahlil “uy” konseptida himoya va identifikatsiya, “yo‘l” konseptida sinov va o‘rganish, “taqdir” konseptida muqarrarlik bilan birga inson harakatining chegaralari aks etishini ko‘rsatdi. Farqlar esa madaniy kodlarning ustuvorligida namoyon bo‘ldi, masalan, o‘zbek maqollarida ijtimoiy-oilaviy qadriyatlar va “tadbir” omili kuchliroq, rus materialida esa shaxsiy hudud va fatalistik intonatsiya nisbatan aniqroq. Shu bois paremiologik fondni konseptologik tadqiq etish til, tafakkur va madaniyatning uzviy bog‘liqligini empirik misollar bilan yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахимова Ф., & Нуриддинова Н. (2025). Maqollarning paremiologik birlik sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari. Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования, 1(1), 467-469
2. Даль В.И. Пословицы русского народа: в 2 т. Т. 1. М.: Художественная литература, 1989. 431 с.
3. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: Sharq, 2005. 257 b.
4. Воркачёв С.Г. Семиотика лингвокультурного концепта и концептология // Язык, коммуникация и социальная среда. 2014. № 12. С. 51-64.

5. Маслова В.А. Лингвокультурология как наука о человеке, его языке, сознании и культуре // *Kalba ir kontekstai*. 2015. С. 30-38.

6. Паремиология без границ: монография / Е.Н. Антонова, М.А. Бредис, Т.Е. Владимирова и др.; под ред. М.А. Бредиса, О.В. Ломакиной. М.: РУДН, 2020. 244 с.